

15-Dekabr, 2025-yil

TA’LIM JARAYONIDA IJTIMOIIY VA AKADEMIK QOBILIYATLARNI UYG‘UN RIVOJLANTIRISH USULLARINI O‘RGANISH

Matkarimova Munira Atabekovna
Osiyo Xalqaro Universiteti magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ijtimoiy va akademik qobiliyatlarini uyg‘un rivojlantirishning nazariy asoslari va amaliy mexanizmlari tahlil qilinadi. Shaxsning ijtimoiy kompetensiyasi, kommunikativ saviyasi, hamkorlikda ishlash madaniyati bilan bir qatorda fanga oid bilimlarini mustahkamlashning samarali usullari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot amaliyotida kollaborativ ta’lim, loyiha asosida o‘qitish, differensial yondashuv, kompetensiyaga yo‘naltirilgan topshiriqlar va reflektiv mashg‘ulotlarning o‘quvchi rivojlanishiga ta’siri ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy kompetensiya, akademik qobiliyat, integratsiyalashgan yondashuv, kollaborativ ta’lim, refleksiya, loyiha asosidagi ta’lim, differensial yondashuv.

Annotation. This article analyzes the theoretical foundations and practical mechanisms for the harmonious development of students’ social and academic abilities in the modern educational process. It explores approaches that strengthen social competence, communication culture, collaborative skills, and academic performance. The study highlights the effectiveness of collaborative learning, project-based instruction, differentiated approaches, competency-oriented tasks, and reflective activities.

Keywords: social competence, academic skills, integrated approach, collaborative learning, reflection, project-based learning, differentiated instruction.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические основы и практические методы гармоничного развития социальных и академических способностей учащихся. Анализируются подходы, способствующие формированию социальной компетентности, коммуникативной культуры, навыков сотрудничества и укреплению академической успеваемости. Исследование обосновывает эффективность коллаборативного обучения, проектных методов, дифференцированного подхода и рефлексивных упражнений.

Ключевые слова: социальная компетентность, академические способности, интегрированный подход, коллаборативное обучение, рефлексия, проектное обучение, дифференцированный подход.

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning nafaqat fanlar bo‘yicha bilim darajasi, balki ularning ijtimoiy kompetensiyalari ham muhim omil sifatida qaralmoqda. Global integratsiya sharoitida shaxsning muvaffaqiyati ijtimoiy muhitga moslashish, jamoada

15-Dekabr, 2025-yil

ishlash, nutq madaniyati, mas’uliyat va tashabbuskorlik kabi ko‘nikmalarning rivojlanganligi bilan chambarchas bog‘liq. Shu bois ta’lim jarayonida ijtimoiy va akademik qobiliyatlarni birgalikda rivojlantirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar dolzarblik kasb etadi.

Bugungi globallashuv davrida ta’lim tizimi faqat akademik bilimlarni egallash jarayoni emas, balki shaxsning muloqotga kirishish, jamoada ishlash, mas’uliyatni his etish va tanqidiy fikrlash kabi ijtimoiy ko‘nikmalarini shakllantirishni ham o‘z ichiga oladi. Ta’limning zamonaviy modeli ko‘proq kompetensiyaviy yondashuvga asoslanib, o‘quvchini faqat bilim oluvchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida shakllantiradi.

Tadqiqotning maqsadi – o‘quv jarayonida ijtimoiy va akademik kompetensiyalarni uyg‘un rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik usullarni aniqlash va ularning amaliy samaradorligini asoslashdir. Mazkur maqsadni amalga oshirishda kuzatuv, pedagogik eksperiment, o‘quvchilar faoliyatini tahlil qilish, psixologik-dagnostik testlar hamda sifatli intervyu kabi ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, loyiha asosidagi ta’lim, kollaborativ o‘qitish, rolli o‘yinlar, muammoli vaziyatlar asosida ishlash, aks ettiruvchi fikrlash (refleksiya) mashqlari ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida yuqori samaradorlikka ega. Shu bilan birga, differensial yondashuv, integratsiyalashgan darslar va interaktiv metodlarning qo‘llanishi o‘quvchilarning akademik natijalarini barqaror oshiradi. Ikkala yo‘nalishning uyg‘unlashuvi o‘quvchilarda o‘z-o‘zini boshqarish, motivatsiya, mas’uliyat va ijodkorlik kabi fazilatlarning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Ijtimoiy va akademik qobiliyatlarning uyg‘un rivojlanishi o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi, motivatsiyasi va psixologik barqarorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunda kollaborativ metodlar (guruhda ishlash, juftlikdagi topshiriqlar, muhokama modellar), loyiha asosida ta’lim (loyihaviy muammolarni hal qilish, ijodiy taqdimotlar), rolli o‘yinlar, interfaol mashg‘ulotlar o‘z samarasini beradi.

Akademik qobiliyatlarni rivojlantirishda differensial yondashuv muhim bo‘lib, har bir o‘quvchining individual imkoniyatlaridan kelib chiqib topshiriqlar taqdim etiladi. Integratsiyalashgan darslar esa turli fanlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqur anglashga va ko‘nikmalarni kompleks shakllantirishga xizmat qiladi. Tahlillar natijasida ijtimoiy va akademik qobiliyatlarni uyg‘un rivojlantirishda o‘qituvchining metodik mahorati, ta’lim muhiti, jamoaviy muloqot madaniyati va psixologik qo‘llab-quvvatlash omillari muhim rol o‘ynashi aniqlandi. Tadqiqot asosida ta’lim jarayoniga integratsiyalashgan yondashuvni tizimli joriy etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy va akademik kompetensiyalar birgalikda rivojlangan ta’lim muhitida o‘quvchi o‘z-o‘zini boshqarish, fikrni erkin ifoda qilish, mas’uliyatni his qilish, ijodkorlik kabi fazilatlarni tezroq egallaydi. Ta’lim jarayonida psixologik qo‘llab-quvvatlash, o‘qituvchining metodik tayyorgarligi va sog‘lom kommunikativ muhitning yaratilishi muhim omil hisoblanadi.

Ijtimoiy va akademik qobiliyatlarning uyg‘un shakllanishi ta’lim samaradorligini oshiradi. Ularning integratsiyalashgan rivojlanishi o‘quvchini har tomonlama barkamol

15-Dekabr, 2025-yil

shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Ta’lim jarayoniga innovatsion metodlarni muntazam tatbiq etish ushbu jarayonni yanada takomillashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Piaget, J. (1952). The Origins of Intelligence in Children. New York: International Universities Press
2. Nafasov, D. (2020). Theoretical and pedagogical aspects of forming sociocultural competence of students in tourism. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(12).
3. Vygotsky L.S. Mind in Society. Harvard University Press, 1978. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.
4. Shodiev, B. (2017). Pedagogik texnologiyalar va metodlar: nazariya va amaliyot. Tashkent: Universitet nashriyoti.
5. Niyozov R., To‘raqulov E “Pedagogika nazariyasi va amaliyoti” – Toshkent: Fan, 2005. – 89–112-betlar.
6. Tolipov O‘., Usmonboeva M “Pedagogik kompetentlik va texnologiya” – Toshkent: Fan, 2010. – 98–130-betlar.